

**BOLALAR NUTQIDAGI LEKSIK BOYLIK VA GRAMMATIK  
KO'NIKMALARINING RIVOJLANISH OMILLARI**

*Davlatova Hulkaroy Uktamovna*

*Andijon davlat chet tillari instituti*

*Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasida dotsenti*

*Annotatsiya:* Mazkur maqolada bolalar nutqidagi leksik boylik va grammatik ko'nikmalarining rivojlanish omillari borasida fikr yuritiladi. Bolalarning og'zaki va yozma nutqdagi maqolada keltirilgan misollar murakkab sintaktik konstruksiyalarning kamayishiga sabab bo'ladi. Bolalarning yozma nutqiy muloqotidagi grammatik me'yorlarning buzilishi va raqamli muloqotda grammatik aniqlik ikkinchi darajaga tushadi, natijada bolalar nutqida kelishik, zamon va shaxs qo'shimchalari tushirib qoldiriladi. Shu bilan birga maqolada soha vakillarining leksik boylik va grammatik ko'nikmalar tushunchasiga ta'rif berilgan, Ingliz tilshunosligi sohasidagi yetakchi olimlarining fikrlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** bolalar, nutq, grammatik ko'nikmalar, leksik boylik, leksik va grammatik omillar, muloqot, so'zlar to'plami

**KIRISH.** Til rivoji har bir bolada alohida, individual va bosqichma-bosqich kechadigan murakkab jarayon hisoblanib, uning muvaffaqiyatli kechishi leksik va grammatik omillar bilan belgilanadi. Leksik boylik avvalo bolaning o'zlashtirgan va faol nutqiy munosabatlarda qo'llay oladigan so'zlar to'plami tashkil etadi, grammatik ko'nikma esa jamlangan leksik birliklarni tildagi qonun-qoidalar asosida birlashtirish, morfosintaktik strukturalarni shakllantirish orqali nutqiy muloqot jarayonida qo'llay olish bosqichi hisoblanadi. Bugungi kunda bolalar nutqi rivojida leksik va grammatik kompetensiyani aniqlovchi omillar kompleks xarakterga ega bo'lib, ularga biologik, sotsiokulturologik, psixolingvistik va texnologik jihatlar kiradi, bular bugungi kundagi bolalar nutqi rivojining asosini tashkili etishligi bilan alohida ahamiyatlidir. Ilmiy tadqiqotimizning mazkur qismida, zamonaviy

tilshunoslik va ontogenez nuqtayi nazaridan bolalarda leksik boylik va grammatik ko'nikmalar shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tahlil etish hamda ularni ilmiy tadqiqotlar, empirik kuzatishlar, zamonaviy texnologiyalar bilan bog'lab o'rganishdan iborat.

**ASOSIY QISM.** Shu o'rinda, leksik boylik va grammatik ko'nikmalar tushunchasi ta'rif berib o'tamiz. Ingliz tilshunosligi sohasidagi yetakchi olimlardan biri J. Richardsning fikriga ko'ra, lingvistikada leksik kompetensiya tushunchasi so'zlarni tanish, ularning ma'nolarini anglash, sinonimiya, antonimiya, polisemiya va boshqa semantik aloqalarni o'zlashtirish tushuniladi, deya ta'rif beradi<sup>1</sup>. Masalan, raqamli muhit ta'sirida bolalar nutqidagi leksik boylikdagi o'zgarishlariga quydagi misollarni keltiramiz. Leksik boylikning kengayishi ya'ni miqdoriy o'sish jarayoni raqamli muhit (internet, ijtimoiy tarmoqlar, o'yinlar, video platformalar) bolalarni yangi so'zlar bilan tez va uzluksiz tanishtirmoqda. Ayniqsa ingliz tilidan kirib kelgan birliklar faol qo'llanilmoqda. Kuzatishlarimiz natijasida ishtirokchilarning nutqiy muloqotida faol qo'llanilayotgan *like, comment, post, stream, blogger, gamer, onlayn, akkaunt, profil, link, kontent*<sup>2</sup> kabi so'zlar bolalar nutqida kundalik leksik birliklarga aylanib bormoqdaki, ularning faol lug'atini kengaytirish bilan birga, nutqiy muloqotida tez-tez qo'llanilmoqda. Ammo bu kengayish ko'pincha tematik jihatdan cheklangan bo'lib, asosan texnologiya va media sohalariga tegishlidir. Shu o'rinda, bolalar nutqida grammatik tuzilishdagi o'zgarishlar va gap tuzilishining qisqarishi borasidagi fikrlarimizni keltiramiz. Raqamli muhitda bolalar deyarli do'stlari va yaqinlari bilan chat, SMS, kommentariyada (izoh bildirishda) to'liq bo'lmagan gaplardan foydalanadilar. Masalan, aslida "Men bugun maktabga bormadim, chunki kasal edim" gapi bolalarning ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalardagi ko'rinishi "*Bugun maktab yo'q. Kasal.*"<sup>3</sup> Aslida "Bu o'yin juda qiziqarli ekan" gapi telegram ijtimoiy tarmog'idagi qisqa shakli quydagicha "*Zo'r o'yin!*"<sup>4</sup>. Keltirilgan misollarning izohi

---

<sup>1</sup> Richards, J. C. The role of vocabulary teaching. TESOL Quarterly, 10(1), 1976. – Pp. 77–89.

<sup>2</sup> Samarqand shaxar Motrud mavzusida ishtirok qiluvchi 10,11,13,14 yoshli Sarvar, Komil, Abdurahmon, Aziz va G'ulomlarning nutqidan olingan. [2025 yilgi kuzatish natijalaridan]

<sup>3</sup> Andijon viloyati Asaka tumani J.Mangubergi ko'chasi 1/14 uyda yashovchi 14 yoshli Nurislom nutqidan.

<sup>4</sup> Andijon viloyati Asaka tumani J.Mangubergi ko'chasi 1/12 yashovchi 10 yoshli Asadullox nutqidan.

quydagicha:

Bolalarning ogʻzaki va yozma nutqdagi yuqoridagi misollar murakkab sintaktik konstruktsiyalarning kamayishiga sabab boʻladi. Bolalarning yozma nutqiy muloqotidagi grammatik meʼyorlarning buzilishi va raqamli muloqotda grammatik aniqlik ikkinchi darajaga tushadi, natijada bolalar nutqida kelishik, zamon va shaxs qoʻshimchalari tushirib qoldiriladi. Masalan, aslida Grammatik jihatdan toʻgʻri boʻlgan “Men kelaman” gapi “*Kelaman*” / “*Kelyapman*”, “U aytdiki, kelmaydi” – “*U aytdi kelmaydi*” 12 yoshli Zarnigor va Dilfuzaning<sup>5</sup> telegram ijtimoiy tarmogʻidagi yozishmalaridagi holat doimiy tus olsa, yozma nutq malakalarining shakllanishiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Shu oʻrinda aytishimiz joizki, bunday yozma nutqlarning ijobiy taraflari ham mavjud. Bunday yozishmalar doimiy takrorlansa bolalar tez fikr bildirishni oʻrganadi, dialogik nutqda faollashadi va multimodal (matn + rasm + audio) aqliy idrokini rivojlantiradi. Shu bilan birga, toʻgʻri yoʻnaltirilgan raqamli kontent bolalarning kommunikativ kompetensiyasini oshiradi.

Generativ grammatika nazariyasi asoschisi N. Xomskiy<sup>6</sup> tomonidan tilning tugʻma, ichki mexanizmlariga asoslangan sintaktik qoidalar tizimi boʻlib, cheklangan sonli grammatik strukturalar yordamida cheksiz miqdordagi toʻgʻri gaplar yaratishga imkon berishligi aytilgan. Shu bilan birga, til kompetensiyasi, performans tushunchalari negizida grammatik qobiliyat inson ongida tugʻma tizim sifatida mavjudligi taʼkidlangan. Olim tomonidan ilgari surilgan bu nazariya keyinchalik konstruktivistik yondashuvlar bilan toʻldirilib, nutqiy tajriba, muhit, sotsiomadaniy kontekstning muhimligi bilan mukamallashtirilgan<sup>7</sup>. Tilshunoslikda kommunikativ kompetensiya tushunchasining asosiy komponentlaridan biri sifatida leksik boylik va grammatik koʻnikmalar oʻrganilishi zamonaviy lingvistik, psixolingvistik va kognitiv yondashuvlarning markaziy mavzusiga aylangan. Har qanday til foydalanuvchisi uchun soʻz boyligi yaʼni leksik kompetensiya va

---

<sup>5</sup> Andijon viloyati Izboskan tumani Tinchlik mahallasida 2 va 15 honadonlarda yashovchi 12 yoshli Zarnigor va Dilfuzalarning nutqidan olingan.

<sup>6</sup> Chomsky, N. *Aspects of the Theory of Syntax*. Cambridge, MA: MIT Press. 1965. – P. 236

<sup>7</sup> Tomasello, M. *Constructing a Language: A Usage-Based Theory of Language Acquisition*. Harvard University Press. 2003. – P. 230

soʻzlarni tildagi qoidalarga muvofiq tashkil qilish tildan foydalanishning zaruriy, bir-biri bilan chambarchas bogʻliq omillarining asosini tashkil etadi.

Leksik kompetensiyaning mohiyati, avvalo leksik boylik atamasi bilan boʻgʻliq jarayon hisoblanadi, bu nutq sub'yektining faol til amaliyotida foydalana oladigan soʻzlar majmuasi hisoblanib, tilshunoslikda passiv va aktiv lugʻaviy zaxiralar doirasida tadqiq etiladi. J. Richards<sup>8</sup>ning fikriga koʻra, leksik kompetensiya nafaqat soʻzlarni bilish balki ularning kontekstual, kollokatsion va stilistik jihatlarini ham anglashni talab etishi alohida ahamiyatli jarayon ekanligini anglatadi.

**XULOSA.** Tildan foydalanuvchilarning leksik boyligi bir nechta koʻrsatkichlar asosida oʻlchanadi avvalo soʻzlar soni va turli soʻz shakllari oʻrtasidagi nisbiylik, sinonimiya, antonimiya, polisemiya darajalariga koʻra, tematik soʻz maydonlari boʻyicha tarqoqligi, yakunida esa idiomatik va frazeologik birliklardan foydalanish darajasiga qarab baholanadi. Individual nutq uslubining shakllanishida leksik boylik asosiy omillardan biri boʻlib xizmat qiladi. U zamonaviy lingvistikada korpus tahlillari asosida ham sifat, ham miqdor koʻrinishida baholanadi<sup>9</sup>.

Psixolingvistik nuqtayi nazardan qaralganda, soʻz boyligi bola tomonidan semantik tarmoqlar shaklida oʻzlashtiriladi. Soʻzlar bir-biriga paradigmatic va sintagmatik aloqalar orqali birlashadi<sup>10</sup>. Bu tarmoqlar orqali bola soʻzlarni kontekstda qanday foydalanishni oʻrganadi Natijada leksik zahira kengayishining psixokognitiv asosini tashkil etadi.

---

<sup>8</sup> Richards, J. C. The role of vocabulary teaching. TESOL Quarterly, 10(1), 1976. – Pp. 77–89.

<sup>9</sup> Nation, I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge: Cambridge University Press. 2021

<sup>10</sup> Aitchison, J. Words in the Mind: An Introduction to the Mental Lexicon (3rd ed.). Oxford: Blackwell Publishing. 2018. – P. 106

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI**

1. Aitchison, J. Words in the Mind: An Introduction to the Mental Lexicon (3rd ed.). Oxford: Blackwell Publishing. 2018. – P. 106
2. Chomsky, N. Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge, MA: MIT Press. 1965. – P. 236
3. Richards, J. C. The role of vocabulary teaching. TESOL Quarterly, 10(1), 1976. – Pp. 77–89.
4. Nation, I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge: Cambridge University Press. 2021
5. Tomasello, M. Constructing a Language: A Usage– Based Theory of Language Acquisition. Harvard University Press. 2003. – P. 230